

GULMIRA CHINIQULOVA

*BOLALIKKA O'XSHAYSAN,
BAHOR*

She`rlar

Alisher Navoiy nomidagi
O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti
Toshkent – 2009

Gulmira Chiniqulova

**BOLALIKKA O‘XSHAYSAN,
BAHOR**

Qo'lingizda katta she'riyatga havas qilib, qo'liga qalam olgan Gulmira Chiniqulovanning ilk she'rlar to'plami. Shunday ekan, kitobdagi mavzular, fikrlar muallifning yoshiga yarasha. Ulardagi badiiylilik ham shunday. Lekin Gulmira mashqlarida hayotga shoirona qarash bor. Bu - bo'lg'usi yutuqlarning garovidir.

© Alisher Navoiy nomidagi
O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti
Toshkent — 2009 y.

“Оқ йўл”, Гулмира!

Шоирларнинг тўқсон тўққиз фоизи мактаб ёшида шеър машқ қилган. Лекин ҳаммасининг ҳам ўша йилларда китоби чоп этилмаган. Бунга биринчи сабаб — шеърга талабнинг юқорилиги бўлса, иккинчи сабаб — чоп этиришнинг иқтисодий жиҳатдан имкониятнинг йўқлиги эди. Ҳозирчи жуда кўп ёш шоир ва шоираларнинг мактабдалик чоғида машқлари чоп этилмоқда. Демак, уларнинг ўз ўқувчилари ҳам бор. Бундан ташқари, шеърятга ҳавас туфайли ёзилган сатрлар болаликдан хотира сифатида муқова остига жо бўлмоқда. Шу маънода бу яхшидир ҳам.

Гулмиранинг илк шеърларини ўқиб, “болаликка ўйқаш шоирликни” ва “шоирликка ўхшаш болаликни” кўрдим. Улар бир-бирини тўлдиради.

Тўпламдаги “Куз лавҳалари”, “Қиш фасли”, “Қирғовулим” ҳамда “Сўнгги кўнғироқ” шеърлари ана шу жиҳатдан эса қолади. Ажаб эмас, келажакда Гулмира эл севган шоира бўлиб етишса, дегим келади. Албатта, бунинг учун ҳали у кўп ўқиши, изланиши ва катта шеърятнинг сир-асроридан хабардор бўлиши керак.

Шарафли ва машаққатли бу йўлда бу қизимизга мен муваффақиятлар тилайман.

Шукур Қурбон,
Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси аъзоси, шоир.

QISHLOG'IM

Yuragimning bir bo'lagi so'lim qishlog'im,
Shifobaxshdir, sut, qatig'ing qaynar bulog'ing.
Durkun yurar yaylovingda qo'zi, ulog'im,
Soy bo'yida rasming chizar sho'x qizalog'ing.

Bog'laringda olma, anor, shaftoli, uzum,
Polizingda ko'pdir qovoq, qovun, tarvuzing.
Tatib ko'rib hiding oldim qaymoq, pishlog'ing,
Hech qaerga alishmasman go'zal qishlog'im.

Soylaringda zilol suving oqadi ravon,
O'sayotgan har giyohing dardlarga darmon.
Toza havoing tanga yoqar, yoqar jonga ham,
Bag'riginang muncha issiq, qishloqjoningnam.

MEHRIBONIM

Mehribonim onajon,
Sizga beray jismu jon.
Suyanchig'im siz har on,
Ko'kda oyim onajon.
O'rgatasiz tikishni,
Non pishirish, bichishni.
Puxta qilgin har ishni,
Deysiz doim, onajon.
Bolajonim o'qigin,
Ajib she'rlar to'qigin,
Odobli inson bo'lgin,
Deysiz doim onajon.

DADAJONIM

Siz uyimizning boshi,
Porlab turgan quyoshi.
Onamning yelkadoshi,
Jonajon dadajonim.

Porlagan ko'zingizdan,
Bol tomar so'zingizdan,
Nur yog'ar yuzingizdan,
Mehribon dadajonim.

Tarbiya bergan bizga,
Yolg'on qo'shma hech so'zga,
Yoqimli ko'rin ko'zga,
Degansiz nur jahonim.

Qaytarmasman so'zingiz,
Men sizni chin qizingiz —
Bosgan qutlug' izingiz
Siz uchun bor imkonim.

Bo'ling doim sog', omon,
Men bog' bo'lsam, siz — bog'bon,
Yo'latmaysiz kuz, xazon,
Qutlug' manzil-makonim.

QIRQ OVUL

Menga aziz qumloq-toshlog'im,
Unimlidir aziz tuprog'im.
Issiq bag'ringa o'sib ulg'aydim,
Qirq ovulim, ona qishlog'im.

Qishin-yozin to'xtamas soying,
Qirda chopar dingillab toying.
Boshqacha nur sochadi oying,
O'lgunimcha o'payin poying.

Qishlog'imning chorbog'lari bor,
Osmono'par zo'r tog'lari bor.
Qishlog'imning odamlarida
U bois faxr-iftixor.
Duogo'yli bobolarim bor,
Parisifat momolarim bor.
Yoshlari ham ishchan, ijodkor,
Doim bo'lsin omadlari yor.

Jamolinga to'ymaydi ko'zim,
Ta'rifinga teng kelmas so'zim.
Bu dunyoda tanhosan o'zing,
Shaydoyingdir Gulmira-qizing.

SOG'LIGING – BOYLIGING

Sog' tanda sog' aql, der xalqimiz,
Sog'lik bu boylik, demaymiz bejiz.
Sog' bo'lsak, doim a'lo ishimiz,
Tozalik, deymiz, bizning burchimiz.

Kiyining toza, bo'ling ozoda,
Gullar o'stiring sinfxonada.
Yugurmang, deymiz, sinfda, zalda,
Chang va g'ubordan har onda.

So' bo'lay desang, chiniqay desang,
Ertaroq turib, toza havoda,
Badan-tarbiya mashqini qil sen,
Yuring doimo bo'lib ozoda.



KITOB

Kitob – bilim ziyosi,
Men uni muhtalosi.
O'qib ko'nglim yayraydi,
Bu – gapim indallosi.

Kitob mening sirdoshim,
Ko'p ishda ko'makdoshim.
Savollarim ko'p, bisyor,
Kitobda javobi bor.

Insonga yo'l ko'rsatar,
Bilmaganin o'rgatar.
Ajratar qora, oqni,
Olasiz ko'p saboqni.

Aqling pishib-yetilar,
Ko'p o'qigan – ko'p bilar,
Kitobni men sevaman,
Unga mehrim qo'nganman.



FANLAR

Mehnat

Mehnat bilan yetilar
Ko'p o'qigan ko'p bilar
Mehnatdan yaratilar
Mo'jizakor narsalar.

Geografiya

Geografiya mo'jiza ko'zi
Xaritada dunyoning o'zi
Globusni kashf etgan olim
Al Beruyniy bobomning o'zi

Algebra

Algebra-riyoziyot,
Misol yechish ko'p oson.
Aqlimizni charxlaydi
Har bir raqam, har bir son.

Yo'l harakat qoidalari

Yo'l harakat qoidasi –
Joningizning foydasi.
Doim qil unga amal,
Ko'pdir uning foydasi.


Jismoniy tarbiya

Jismoniy tarbiya darsi
Hammaga kerak asli.
Tanasi sog' odamlar
Qarishni bilmas asti.

Musiqa

Quvnoq musiqa fani
Bolalarning jon-tani.
Qo'shiq aytib quv naydi,
O'ynab-o'ynab to'ymaydi.

Musiqa sadolari
Yuragiga joylanar.
Kuy-qo'shiq navolari
Musiqada jonlanar.



SO'NGI QO'NG'IROQ

Bolaligim – o'zal olarim
Sizlar bilan birga ketkazdim,
Ustozlarim saboqlarini
Ko'z o'ngimdan asta o'tkazdim.
“Sinfoshim, sinfdoshim” deya,
Barcha sirni o'rtoqlashdim ham.
Papkamdagi kulchamni yeya,
Dostim bilan ko'rishdim baham.
Ustozimning savollariga
Shosha-pisha avob berardim.
Sinfoshim qiliqlariga
Asta labim burib qo'yardim.
Mana, endi, sinfdoshlarim,
Xayrlashish oni kelibdi.
To'xtamaydi ko'zda yoshlarim,
To'qqiz yil ham o'tib ketibdi.
To'qqiz yilni unutmang, do'stlar,
Qadrdonmiz, qadrli sizlar.
Qanday quvnoq shodonmiz bizlar,
Xayrlashish og'irdir, do'stlar.
Chalinadi so'ngi qo'ng'iroq,
Bu davr ham gashtlidir, biroq
Balki yo'qdir menda, baxtliroq,
Xayr deyman, qalbimda titroq.

MENING AKAM

Mening akam askardir,
Xizmat qilar yurt uchun.
Sergak, hushyor pospon u,
Tinchlik postida kun-tun.

Ko'ngli sezadi uning
G'imirlasa biror yov.
Vatanim tuprog'ini,
Saqlar ko'ksin qilib g'ov.

Askarlik burch muqaddas.
Elu yurtni o'ylagan,
Sadoqatu mehrini,
Yuragiga joylagan.

NIGORA

Go'zal opam Nigora
Ko'z qoshlari qop-qora.
Juda keskin, cho'rtkesar,
O'ylab ko'rib ishini,
Oxiriga yetkazar.

Qo'li gulday bichuvchi,
Bizga ko'ylak tikuvchi.
Uning tikkan ko'ylagin
Kiydi Munis birinchi,
Bo'ldi keyin o'yinchi.

QUTLAB KETASAN

Bolalikka o'xshaysan, bahor.
Ha deganda o'tib ketasan.
Kelasanu quvnatib bizni,
Navro'z bilan qutlab ketasan.

Qishning korin eritar nasim,
Oq yurak-la gullar tutasan.
Maysalarga ko'mib olamni,
Navro'z bilan qutlab ketasan.

Yasangansan kelin misoli,
Rom qilishga buncha ustasan.
Kelasan-u yayratib dilni,
Navro'z bilan qutlab ketasan.

NAVRO'Z

Bobolar, momolar — to'yimiz boshi,
Tayyordir bayramga o'zbekning oshi.
Xizmatga shay turar yigitning yoshi,
Qizlarga yarashgan o'smali qoshi.

Qizlarning boshida guldin chambarak,
Bolalar uchurdi zavqlanib varrak.
Hammaga tortiqdir shirin sumalak,
Samodan tushadi o'ttizta malak.

Bayramlar go'zali, qadimiy navro'z,
Tarifing sozlashga tilimdir ojiz.
Baxshining qo'lida jaranglar so'zi,
Bobo-momolarning ruxlari rozi.

BOG'IMDA

Erta sahar bog'imda
Rosa gullar ochildi.
Uning hushbo'y hidlari
Yon-atrofga sochildi.
Pushti, sariq, yashil, oq,
Qizil rangda qizg'aldoq.
Guldan yasadik baldoq,
Opam dedi: Qani, taq!
Gullar quchib o'ynadik,
O'ynab-o'ynab to'ymadik.
Quvnoq, shodon qo'shiqni
Birgalashib kuyladik.
Gullar terdik bir quchoq,
Oyim quvondi biram,
Keyin oldik biz orom.



YOZ

Yozning juda issiq kunlari
Boshlanibdi bahor ketidan,
Yozning ajib salqin tunlari
Ulanibdi ular ortidan.

Quyosh bobo nurlarin sochib,
Tabiatga bag'rini ochib,
Gullar hushbo'y bo'lib ilhomchi,
Suv keladi tog'lardan qochib.

Daraxtlar ham mevalarini
Kuga toblab sarg'aytiribdi,
Qolgan ishni bizlarga qo'yib
O'z ishidan mamnun tiribdi.

G'ayrat qilib ko'kargan toklar
Kuyib, pishib mehnat qilmoqda.
Shirin-shakar mevalarini
Insonlarga xo'b ilinmoqda.

Yozda ta'til olgan bolalar
To'yib, to'yib mevalar yebdi.
To'lib-toshib oqqan anhorlar
Ularni xo'b cho'miltiribdi.

KUZ LAVHALARI

Oltin rangli ajib kuzda
Go'zal muhit hukm surar.
Tariflasam bo'lmas so'zda,
Zo'r hangoma bo'lib turar.
Daraxtlar ham mana deya,
Mevalarin ko'z-ko'z qilar.
Bulutlar ham ko'chib-yurib
Ko'z yoshlarin to'kib qolar.
Polizlarda qovun-tarvuz.
Qachon paydo bo'ldi ekan?
Tabiatning sehrgari
Yasay-yasay to'ldimikin?
Shamol bobo kezib yurar,
Goh to'palon qilib turar.
To'palonda mevalar ham
Savatlariga o'zin urar.
Kuz rassomi xayol surib,
Buzib qo'ydi barglar rangin.
Qizg'ish, sariq rangda bo'yab
Yashil rangli tabiatin.
Uzum, olma, behigacha,
Shaftoli-yu anjirgacha.
Pishib qopti bular bari,
Go'yo va'da bergan bari.
Hangomalar davom etar,
Omborlar ham donga to'lar.
Oq oltinni yig'ishtirib,
Qish fasliga fursat kelar.

QISH FASLI

Qish kelsa oppoq dala,
Dalaga to'lar bola.
Unda o'ynar qorbo'ron,
Chang'ida misli jayron.
Qorbobo yasashadi,
Qorqizi yarashadi.
Shuning uchun qish asli
Quvnoq o'yinlar fasli.
Daraxtlar shoxida qor,
Qorda bir mo'jiza bor.
Parmi u yo paxtami,
Oppoq muzli parchami.
Hayronman qishga o'zi
Sehrga to'la ko'zi
Shuning uchun qish asli
Ajb mo'jiza fasli.



RAVSHAN BOBOMLAR

Ravshan bobomning ruhi shod bo'lsin,
Mo'tabar qabri nurlarga to'lsin.
Qo'shrabotning yosh qalamkashlari
Ravshan bobomdek shoirlar bo'lsin.

Bobomning izdoshlari ko'p bo'lsin ,
Ijodlariga to'le yor bo'lsin.
Izdoshlarining yutuqlaridan,
Bobomning ruhifaxrga to'lsin

Ravshan bobomning o'gil ,qizlari,
Kitobin o'qiydi ko'zda yoshlarin.
Bobomni unutmas vatandoshlari,
Sizdayin zabardast shoirlarini.

Ravshan Fayz nomi dillarda mangu,
She'rlari doston tillarda mangu.
Siz ketdingiz —u she'ringiz qoldi
Izingizdan shoira qizingiz qoldi

AYOL

Hayot sinoviga berarsan chidam,
Sening ta'rifinga tillarimiz lol.
Bunchalar mehribon sahiysan har dam,
Tengi yo'q iroda sohibi ayol .

Sizdan boshlanadi go'zal hayot ham,
Dunyo ham lol qolgan so'zingizda bol.
Ezguligingizdan chekinarlar g'am ,
Dunyoda go'zallik o'chog'I ayol.

Yozganlar tarixda To'marisni ham ,
Har soxa ,har ishda boshsizlar ayol.
Muhabbat,sadoqat senda mujassam,
Har doim mo'tabar ,muqaddas ayol



QALDIRG'OCH

Yurtda bahor boshlansa ,
Qaldirg'och uchib kelar.
Joy izlab, u yon bu yon ,
Bizning uyga in qurar.

U yon bu yon uchadi ,
Loy hashakni sochadi .
Inini qurib bo'lgach,
Tuhumlarim quchadi.

Ona qaldirg'och yotar ,
Tuhumlari qimirlab.
Ochishga fursat yetar,
Jo'jalari jimirlab.

Kunlar o'tib ,vaqt o'tib,
Kattaribdi jo'jalar.
Kuch-u qudratga to'lib
Uchibdi qaldirg'ochlar.

Ona asta kuzatib,
Saboqlarin beribdi.
Mehnat qilib ter to'kib ,
Yashashni o'rgatibdi.



TULKI VA IT

Qishning sovuq ,uzun tunida,
Ovga chiqdi ayyor Tulkivoy.
Chekkadagi bir uy tovug'in,
Olib qochish o'y ilinjida .

Hamma yoqqa nazrin solib,
Ko'rib qoldi bir katta itni.
Uxlab yotar go'yo beparvo,
Tulki qazir tovuq uyini.
Tulki uydan bir tuynuk ochdi,
Tovuqlarni har taraf sochdi.
Bir tovuqni u ola qochdi,
Qutqrishga it tezda shoshdi.
Bir zum o'tmay it unga yetdi,
Tulki qo'rqib yuragin yutdi.
O'ljasin tashlab Tulkivoy,
Orqasiga qaramay ketdi.
Tirik qolgan tovuqni ushlab ,
Olib keldi tovuq uyiga.
Kutib oldi xaloskorini,
Rahmat aytdi tovuqlar xushlab.

XAYRLASHISH

So'nggi kunda yig'ldik biz
Hayajondan yoshlandi ko'z,
To'qqiz yillik do'stlarim siz ,
Sinfdoshim ,sirdoshim sizensiz.

'
Xayrlashim judayam og'r
Bolaligim qaytmaydi axir ,
Endi biz o'smirmiz ,o'smir
Kollej ,litsey ochadi bag'ir

Tilaklarim osmonch bor,
Niyatlar ushalsin bisyor.
Barchaga omad tilayman ,
Intiling to'le bo'lsin yor.

Mundarija:

Qishlog`im.....	4
Mehribonim.....	4
Dadajonim.....	5
Qirq ovul.....	6
Sog`lig`ing – boyliging	7
Kitob.....	8
Fanlar.....	9
So`nggi qo`ng`iroq.....	11
Mening akam.....	12
Nigora.....	12
Qutlab ketasan.....	13
Navro`z.....	13
Bog`imizda.....	14
Yoz.....	15
Kuz lavhalari.....	16
Qish fasli.....	17
Ravshan bobomlar.....	18
Ayol	19
Qaldirg`och	20
Tulki va it.....	21
Xayrlashish.....	22

*BOLALIKKA O'XSHAYSAN,
BAHOR*

Muharrir: *Shukur Qurbon*
Badiiy muharrir: *Asliddin Jo'rayev*
Dizayner: *Akmal Jo'raboyev*

Bosishga ruxsat etildi 17. 11. 2009 yil.

Bichimi 84x108 ^{1/32}
Hajmi 1,5 b.t. Adadi 200 dona.
Buyurtma № 209

Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy
kutubxonasi nashriyoti

Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy
kutubxonasi bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahri, Istiqlol ko'chasi 33 uy.